https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maftuna Rahmatullayeva Fayzullayevna

“TIQXMMI”MTU,2-kurs talabasi

ODAM SAVDOSI VA UNING OQIBATLARI

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy global muammo sifatida e’tirof etilayotgan odam savdosi hodisasi, uning asosiy sabablari, turlari va oqibatlari atroflicha tahlil etiladi. Tadqiqotda odam savdosi transchegaraviy jinoyat sifatida ko‘rib chiqilib, fuqarolarning noqonuniy mehnat migratsiyasi, huquqiy ongning pastligi, iqtisodiy muammolar kabi omillar bu jinoyatning keng tarqalishiga sabab bo‘layotgani ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar asosida odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Maqola yakunida ushbu jinoyatning oldini olishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: odam savdosi, transchegaraviy jinoyat, majburiy mehnat, huquqiy ong, inson huquqlari, ekspluatatsiya, migratsiya, xalqaro konventsiya, qonunchilik, zamonaviy qullik.

Odam savdosi bu transchegaraviy jinoyat hisoblanadi. Uning asosiy elementlari bu xorijga turli maqsadda borayotgan fuqarolarning aldanib qolishi natijasidir. Afsuski, odam savdosi qurboni bo‘layotgan fuqarolar xorijga ishlash maqsadida boradi va firibgarlarning tuzog‘iga tushib turli xil vaziyatlarda qoladi.Xususan, fuqarolarimizga turli xil qo‘shtirnoq ichidagi xususiy bandlik agentliklari yoki turli xil firmalar tomonidan xorijiy davlatga:” Sizni biz tez,oson tarzda ishga yuboramiz, ish bilish talab qilinmaydi,o‘sha yerda o‘rgatamiz yoki til bilish shart emas o‘zimiz o‘rgatamiz, ish jarayonida sizdan hech qanday harajatlar talab qilinmaydi, yuqori maosh va’da qilamiz”,qabilidagi jimjimador so‘zlar bilan fuqarolarimizni o‘zlariga jalb qilishga harakat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra dunyoda har yili tahminan ikki million yetti yuz ming kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda.Xalqaro ekspertlarning baholashicha ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotgan yillik daromad miqdori yetti milliard AQSH dollaridan oshib ketgan.Tashvishlanarlisi,odam savdosidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir.Har yili dunyo bo‘yicha 600-800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo‘li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib sotib yuborilmoqda.Afsuski, dunyo bo‘ylab shuncha keng qamrovli amaliyot, targ‘ibot, tashviqot olib borilishiga qaramay har yili millionlab insonlar zamonaviy qullik ya'ni odam savdosi qurboniga aylanishmoqda.Ular orasida ayollar, qizlar, keksalar hatto yosh bolalar ham borligi judayam achinarli. Ushbu jinoyatning rivojlanishiga turtki bo‘layotgan asosiy omillardan biri odamlarning chet elga borish va ishga joylashish haqida yetarli ma’lumotga ega emasligidir. Achinarlisi o‘zga davlat begona bir muhitga tushib qolganlar mumay daromad ilinjida og‘ir jismoniy mehnatga yollanmoqda. Ayollar esa tuban va faxsh ishlarga majbur etilmoqda. Xalqaro talablarga muvofiq odam savdosi og‘ir jinoyat va inson huquqlarini qo‘pol tarzda buzilishi deb tasniflanadi. Mamlakatlar buning uchun jazoni mustaqil tarzda belgilaydilar. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki jamoatchilik ongida odam savdosi turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib shaxsning qadr-qimmatiga bevosita dahl qiladigan, haqiqatdan ham insonni savdo darajasidagi tavar sifatida tahqirlaydigan,shaxsga qarshi shavqatsizlik bilan qilingan jinoyat ekanligini anglash ustuvorlik qiladi. Odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarning eng ko‘p tarqalgan turlari odamlarni bevosita sotish va sotib olish, qullik, erksizlik va qaramlik, erkaklar va ayollarning mehnat ekspluatatsiyasi, odamlarni ularning a’zolaridan foydalanish maqsadida sotish, bolalarni sotish va sotib olish hisoblanadi.

Xo‘sh odam savdosi qurboniga aylanib qolmaslik uchun nima qilish kerak?

Avvalo fuqarolarimiz xorijga kafolatlangan, ishonchli,tashkiliy tarzda ya’ni migratsiya agentligi orqali yoki litsenziyaga ega bo‘lgan xususiy bandlik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

agentliklari orqali muvaffaqiyatli tarzda ish faoliyatlarini amalga oshirish uchun borishlari tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha huquqiy qonunchilik bazasini mustahkamlash, instutsional tizimlarni rivojlantirish, aholining xabardorligini oshirish va xalqaro tajribalardan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 2020-yil 17-avgust kuni, O‘zbekiston Respublikasining odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonun asosida 2023-yil 23-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidentining odam savdosiga qarshi kurash va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 210-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan odam savdosiga qarshi kurash va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya Oliy Majlis senati raisi rahbarligida qayta tashkil etildi. Mazkur milliy komissiya tarkibiga ikkita kichik komissiya tashkil etilgan. Birinchi kichik komissiya odam savdosiga qarshi kurash masalalari bo‘yicha, ikkinchisi esa munosib mehnat masalalari bo‘yicha kichik komissiya hisoblanadi.Milliy komissiya tomonidan O’zbekistonning xalqaro reytinglarda pozitsiyasini yaxshilash maqsadida 21 ta chora-tadbirlar dasturi ya’ni yo’l xaritalar ishlab chiqildi va ularning ijrosi ta’minlandi. Bu borada AQSH davlat departamentining odam savdosi bo’yicha yillik hisobotida O’zbekiston xalqaro standartlarni amalga oshirayotgan davlatlar ro’yxatiga kiritildi.2021-yil 1-iyulda AQSH davlat departamentining odam savdosi bo’yicha yillik hisobotida O’zbekiston xalqaro standartlarni bajarayotgan davlatlar ro’yxatiga kiritildi.Takidlash joizki, O’zbekistonda har yili odam savdosi jinoyatidan ogohlantirish maqsadida 30-iyun “Odam savdosiga kurashish kuni” sifatida targ’ibot tashviqot ishlari amalga oshiriladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Insoniyat tarixida odam savdosiga qarshi kurashish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xotin-qizlarning Evropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit'alariga keng ko'lamli migratsiyasi hamda ayollarni Evropaga sotish hodisasi kuzatilgan. Bu hodisaga barham berish maqsadida Parijda 1902 va 1910-yillarda ikkita konferentsiya o'tkazilib, “Oq qullar savdosiga qarshi kurash” nomli butunjahon Konventsiyasi qabul qilingan.Keyinroq ushbu konventsiya “Ayollar va bolalar savdosini yo'qotish” va “voyaga etgan ayollar savdosini yo'qotish” nomli butunjahon Konventsiyalari bilan to'ldirilgan. Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari sekin-asta rivojlanib, 1948 yilda "Inson huquqlari" umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak odam savdosiga qarshi kurash borasida O’zbekiston Respublikasi “Odam savdosi jinoyatlarini oldini olish,ularni fosh etish, ularni aniqlash, ularga barham berish bo’yicha keng ko’lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek,odam savdosidan jabrlanganlarga har tomonlama yordamlar ko’rsatib kelinmoqda.Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 135-moddasi odam savdosi jinoyati uchun javobgarlik normalarini mustahkamlash, tergov,sud,huquq tizimini takomillashtirish chora tadbirlari davom ettirilmoqda.